

“MAXZAN UL-ASROR” VA “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONLARIDA
ME’ROJ BAYONI

Robiyaxon Sobitova Salohiddin qizi,
Qo‘qon Davlat Universiteti, talaba
robixaxonsobitova04@gmail.com
+9988917392835

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.06.2026
Revised: 24.06.2026
Accepted: 25.06.2026

KALIT SO‘ZLAR:

Me’roj, Isro,
me’rojnomasi, janr,
ko’tarilish, “Maxzan ul-
asror”, “Hayrat ul-
abror”, samo, koinot,
fano, baqo.

Ushbu maqolada islom olamining eng buyuk mo’jizalaridan biri bo’lgan me’roj voqeasi, uning badiiy adabiyotda alohida bir janr sifatida talqin etilishi ko’rsatib o’tilgan. Shuningdek, Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” va Алишер Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonlarida me’roj voqearining aks ettirilishi, ijodkorlarning voqearni tasvirlashdagi o’z uslubiy yo’nalishlari qiyosiy jihatdan tahlil etilgan.

KIRISH

Me’roj masalasiga teologik nuqtai nazardan yondoshilganda fenomen hodisa sifatida o’rganiladi. Ma’lumki, bu ulug’ kechada Payg’ambar alayhissalom Alloh taoloning zoti va sifatini bevosita guvohi bo’lish imkoniyatiga sazavor bo’ldilar. Payg’ambar mazkur jarayonda jannat va do’zax, “Bayt ul-ma’mur”, o’tgan payg’ambarlar bilan bevosita uchrastirildi hamda laduniy irfon bilan yanda to’yintirildi. Bu g’aybga oid haqiqatlarning Payg’ambar alayhissalomga ko’rsatilishi bejiz emas edi, payg’ambar alayhissalomning da’vatlari mustahkam asosga ega bo’lilishiga, mo’minlarning qalblariga xotirjamlik va ishonch bag’ishlashiga dalil bo’lgan.

Adabiyotlar tahlili

“Isro” (الإسراء) Alloh taolo Muhammad sollallohu alayhi vasallamni kechaning bir bo’lagida Makkadagi Masjidul Haromdan Quddusdagi Masjidul Aqsoga sayr qildirishidir.

“Me’roj” (المعراج) esa, Alloh taolo Payg’ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamni Quddusi sharifdan yuqoriga, ya’ni, O’zining Huzuriga ko’tarishidir.

Bu haqda Qur'oni karimda: «(O'z)bandasi (Muhammad)ni, unga mo'jizalarimizdan ko'rsatish uchun (Makkadagi) Masjid ul -Haromdan (Qudsdagi) Biz atrofini barakotli qilgan Masjid u -Aqsoga tunda sayr qildirgan Zotga tasbeh aytilur. Darhaqiqat, U eshituvchi va ko'ruvchidir» (Isro surasi, 1-oyat), deyilgan.

“Me’roj” va “Isro” nomlari bilan ataladigan ushbu hodisa buyuk mo'jizalardan biridir. Bu voqea haqida Qur'oni Karimda, shuningdek, hadislarda va islom tarixiga oid manbalarda aniq va batafsil to'xtalib o'tilgan. Me'roj hodisasining eng ulug' mukofoti esa Payg'ambar (s.a.v.) ning Alloh taolo bilan “ikki yoy masofasi” (qoba qavsayn) darajasida muloqot qilinishi, deya e'tirof etiladi. Shu muborak kechada Qur'oni karimning ayrim oyatlari nozil qilinib, musulmonlar uchun besh vaqt namoz farz etilgan. Rasululloh (s.a.v.) Me'rojdan qaytgach, ko'rgan-kechirganlarini bayon qilgach, ushbu voqeaga shubha bilan qaraganlar, hatto iymonidan qaytganlar ham bo'lgan. Ammo chin iymonli, sodiq musulmonlar bu hodisani mutlaq haqiqat sifatida qabul qilganlar.

Sharq islom ma'rifati barcha davrlarda ijodkorlarni o'ziga maftun qilib kelgan, natijada badiiy adabiyotning bosh mavzu va g'oyasiga aylangan. Shu jumladan, O'rta asrlarda Me'roj voqeariga bag'ishlab juda ko'plab asarlar yaratilib, mumtoz adabiyotning yorqin namoyondalari ushbu mavzuga katta e'tibor bilan munosabat bildirgan. Natijada me'rojnoma janri yuzaga kelgan va bu turkiy adabiyot (Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor kabi shoirlar ijodida), shu jumladan, fors-tojik adabiyoti (Nizomiy, Jomiy)da alohida bir mavzu yo'nalishini belgilab bergan.

Tadqiqot metodologiyasi

“Me'rojnoma” — me'roj voqearini badiiy shaklda tasvirlovchi alohida janr bo'lib, unda ilohiy nur, samoviy olam, farishtalar, payg'ambarlar bilan uchrashuv manzaralari keng yoritiladi. Bu janrda voqea nafaqat tarixiy, balki ramziy-ma'rifiy ma'noda ham ochib beriladi. Me'rojnomalarda tasavvufiy g'oyalar, inson ruhiyati va kamoloti asosiy o'rin tutadi. Fors-tojik adabiyotining yorqin namoyondasi, xamsanavislik an'analari eshigini ochib bergan Nizomiy Ganjaviy va turkiy xamsanavislik asoschisi Alisher Navoiy ijodida me'roj voqeariga keng o'rin ajratilgan. Jumladan, ikki ulug' mutafakkirlarning “Xamsa” dostonlari muqaddimasi na't qismida alohida me'roj uchun boblar mavjud. Quyida “Maxzan ul-asor” va “Hayrat ul-abror” dostonlari asosida me'rojnoma badiiyatini qiyosiy jihatdan ko'rib o'tamiz.

Tahlil va natijalari

Har ikki me'rojnoma boblarida Qur'oni karim va hadisi sharifga, diniy rivoyatlarga tayangan holda me'rojni Payg'ambar (s.a.v.)ning yuksak maqomi bilan bog'laydi. Navoiyda bu “Subhonallaziy asro” (“Isro” surasi, 1-oyat) oyatiga bevosita tayanish orqali ifodalanadi.

“**Maxzan ul-asror**” dostonida me'roj voqeari shunday tasvirlar bilan boshlanadi:

“Tun yarim erdi, maliki Nimro'z
Mash'alini ayladi getifuro'z –

Boshida to‘qqizta falak yoritib,
Zuhravu Oy yo‘lida mash‘al tutib,
Yo‘l uzanib to harami koinot,
Yetti chiziq, to‘rt hadu olti jihat.
Ul kecha ag‘yor edi uyquga g‘arq,
Ul esa uyg‘oq edi monandi barq.” [6. 36 b]

(Tun yarim bo‘lgan paytda, kunduz hukmdori bo‘lmish quyosh mash‘alasini yashirdi. Uning boshida to‘qqiz falak yondi, Zuhra va Oy yo‘lni mash‘al tutgandek yoritdi. Yo‘l koinot haramigacha cho‘zildi, yetti osmon, to‘rt chegara va olti tomon oshib o‘tildi. Bu kecha boshqalar uyquda edi, Payg‘ambar (s.a.v.) esa chaqmoqdek uyg‘oq edi.)

“Hayrat ul-abror” da esa voqea quyidagicha tasvirlanadi:

“Bir kecha zulmatqa qolib koinot,
Mehr nihon o‘ylaki aynul-hayot.
Garchiki ul chashma nazardin qochib,
Xizr ko‘k uzra qatarotin sochib.
Tun qilibon gardini anbarsirisht,
Butratibon yerga nasimi bixisht.
Yer kuraviy shakl ila mijmar bo‘lub,
Kecha savodi anga anbar bo‘lub.
O‘t kibi yer mijmari ostida mehr
Yopib etak mijmara uzra sipehr.” [1. 28 b]

(Bir kecha butun koinot zulmatga cho‘mdi, hayot bulog‘i bo‘lmish quyosh yashirindi. Garchi u ko‘zdan g‘oyib bo‘lsa-da, Xizr osmon uzra tomchilar sochayotgandek edi. Tun havosini anbar hidiga to‘ldirdi, jannat nasimi yerga yoyildi. Yer dumaloq shaklda go‘yo tutatqi idishiga aylandi, kechaning qorong‘iligi unga anbar bo‘ldi. Olov kabi quyosh yerning ostida yashirindi, osmon esa go‘yo etagini yopdi.)

Me‘rojnoma muqaddimasi tavsif qismi an’anaviy ekspozitsiya tasviri bilan boshlanadi. Ganjaviy “tun”, “quyosh”, “to‘qqiz falak”, “Zuhro”, “Oy”, “koinot”, “yetti osmon”, “olti tomon”, “to‘rt taraf” obrazlari orqali ekspozitsiya kartinasi chizsa, Navoiyda “tun”, “koinot”, “Quyosh”, “Xizr”, “jannat shabodasi”, “yulduz”, “Yer” obrazlari me‘roj hodisasi voqea o‘rni talqin etiladi. Bir qarashda har ikki ijodkor ayni obrazlardan foydalanadi, ammo sub’ektiv yondoshuvda o‘ziga xoslik kuzatiladi. Ganjaviyda ekspozitsiya tasviri inson aqli bilan tasavvur qila oladigan aniq, lo‘nda xarita tasviri kabi tasvirlansa, Navoiyda esa xarita tasvirida ilohiy ruhoniyyat ishtiroki sezilib turadi: tun havosini anbar hidiga to‘ldirdi, jannat nasimi yerga yoyildi.

Ikki ijodkor bir mavzuni katta mahorat bilan yuksak badiyat hodisasi sifatida talqin etadi. Har ikki me‘rojnomalarda Muhammad (s.a.v.) obrazi me‘roj voqearining mutlaq markazida turadi. Butun koinot, farishtalar, osmon jismlari unga mushtoq bo‘lib, xizmat qiladi. Bu orqali Payg‘ambar (s.a.v.)ning olamlar ustidagi yuksak maqomi ta’kidlanadi.

Butun koinot, farishtalar, osmon jismlari unga mushtoq bo'lib, xizmat qiladi. Bu orqali Payg'ambar (s.a.v.)ning olamlar ustidagi yuksak maqomi ta'kidlanadi.

“Maxzan ul-asror” dostonida:

“Parlarini yo‘liga sochdi malak,
Xirqasini poyiga yoydi falak.
Murg‘i ilohiysi base talpinib,
Qolipi undan dag‘i yengil bo‘lib,
G‘ayrati ortib qadam-baqadam,
Manzili tortardi uni dam-badam.
Ikki jahon yo‘liga ko‘z tikdilar,
Qarshi olib, poyiga bosh egdilar.
Odim otib g‘ayratu shiddat ila,
Qamradi bir lahzada yuz marhala
Bahri zamin kon edi, ul gavhari,
Teshdi falak avjini toji sari. ”.[6. 37 b]

(Farishtalar yo‘liga parlarini sochdi, falak esa etagini oyog‘i ostiga yoydi. Ilohiy qush (ruh) yengillashib, qadam sayin yuksaldi, manzil uni tobora o‘ziga tortardi. Ikki jahon ham yo‘liga ko‘z tikib, uni e‘zoz bilan qarshi oldi. U bir lahzada yuzlab manzillarni bosib o‘tdi. Yer xazinaga aylandi, u esa uning gavhari bo‘ldi. Falak cho‘qqilarini yorib, toj tomon yuksaldi.)

Me‘rojnomada markazida turgan Muhammad (s.a.v.) obrazi janr talabiga ko‘ra na’t qonuniyati asosida tavsiflanadi. Tavsiflashda har ikki ijodkor aynan Payg'ambar shaxsini vujudan va fe'lan tasvirlash yo'lidan emas, balki boshqa detal obrazlar orqali chizish - ijroviy tasvir uslubidan mohirlik bilan foydalangan, ayni uslubga murojaat qilish ikki ijodkorning umumiy yondoshuvini belgilaydi. “Muhammad s. a. v. - yagona komil inson” ta’rifini bergan Ibn Arabiy nazariyasiga ko‘ra uning kamoloti borliqning unga bo‘lgan munosabatida yaqqol ko‘rinadi. Ganjaviy Payg'ambarning tashrifidan quvonib farishtalar qanotlarini, butun falak esa etagini yoyib yo‘liga poyonoz to‘shashi, ikki jahon ahlini ul zotning yo‘llariga chiqib bosh egib turishi kabi tavsiflar orqali payg'ambar obrazi boshqa detal obrazlar orqali ochib berilmoqda. Bir yurt podshosi boshqa bir hududga mehmonga kelsa, uni kutib olish uchun qancha inson tashrif buyurishi mumkin, kutib oluvchilar qanchalar ko‘p bo‘lmasin, aniq sonda chegara bo‘ladi. Yoki o‘sha podshoh tashrifi uchun yozilgan poyonozlar nari borsa dunyoning eng qimmatbaho to‘shamalari bo‘lishi mumkin.

“Hayrat ul-abror”da:

“Chun yetibon ko‘k son tavsan anga,
Oy bo‘lubon o‘tgali ravzan anga.
Tiyri qalamzan chu topib ul sharaf,
Buqalamunlug‘ni qilib bartaraf.
Zuxra tarab barbatini soz etib,

Zamzamai taxniyat og‘oz etib”. [1. 28-29 b]

Alisher Navoiy esa mazkur masala bayonida Payg‘ambarning tashrifi sabab oy u uchun o‘tish eshigi bo‘lgani, Zuhro yulduzi bundan xrsand bo‘lib, soz chalib, oliqish qo‘shiqclarini kuylagani haqida aytadi. Har ikki ijodkor Payg‘ambar tashrifidan baxtga to‘lgan borliq, falakning holini bayon qilari ekan, bu o‘z o‘rnida tashrif egasining qanchalar hurmat va kamolot sohibi ekanligini anglatadi. Mazkur talqin uslubidagi o‘xshashlik Navoiyning Ganjaviyga nafaqat mavzu, g‘oya borasida izdosh, balki poetik talqin uslublarda ham shogird maqomini o‘ziga lozim topganligini isbot etadi.

Har ikki me‘rojnoma badiiyatida tasavvufiy timsollar, inson ruhining kamoloti namoyon bo‘ladi. Nizomiy me‘rojnomasida borlik va yo‘qlik falsafasi ilgari surilgan o‘rinlar mavjud. Shoir buni quyidagi misralar orqali ifoda etgan:

Parda edi, unda makon yo‘q edi,
Yo‘l edikim, unda zamon yo‘q edi.
Kimki o‘shal pardaga solgay nazar,
Bir yo‘la yo‘qlik sariga yo‘l topar. [6. 41 b]

Yuqoridagi baytda Payg‘ambar alayhissalomning makon va zamon chegarasidan oshib o‘tganlik tasviri beriladi. Bunda bir parda mavjud bo‘lib, kimki unga nazar solsa, fano vodiysiga qadam qo‘yib, o‘zni unutadi. Tasavvufda fano solikning Allohga eng yaqin kelgan darajasi hisoblanadi. Tavhid ummoniga g‘arq bo‘lgan solik ummondan boshqa narsani ko‘rmaydi, hatto o‘zini ham ummon tomchisi sifatida mushohada qiladi. Xuddi shu kabi “makon”dan o‘tib, “lomakon”ni makon qilish manzarasi Alisher Navoiy me‘rojnomasida ham o‘z aksini topgan:

Qolmadi yo‘lida chun aslo makon,
Qildi makon bodiyai lomakon. [1. 29 b]

Payg‘ambar (s.a.v.) makon va zamon chegaralaridan chiqib, lomakon — makonsizlik vodiysiga yetadi. Bu tasvir tasavvufiy ma‘noga ega bo‘lib, insonning moddiy mavjudlikdan ajralib, mutlaq haqiqatga yetishini anglatadi. Bu bosqichda “men” yo‘qoladi, faqat ilohiy mavjudlik qoladi. Nizomiy me‘rojnomasida ishq sharobidan ichib, Haq vasliga yetishgan oshiqni tasvirlar ekan, uning qalbidagi ishq bir ummon bo‘lsa, biz ummatlarga uning bir qatrasigina “tomgani”, nasib etgani aytiladi:

Ichdi sharob, Haqqa qorishdi abad,
Bizga uning qatrasini tomda faqat. [6. 41 b]

Navoiy me‘roj voqeasini aql bilan to‘liq anglab bo‘lmasligini ta‘kidlaydi. Bu hodisa g‘ayritabiiy va mo‘jizaviy bo‘lib, inson aqli uning mohiyatini to‘liq idrok eta olmaydi. Safar bir lahzada amalga oshganiga alohida urg‘u beradi. Borish-kelishi bir on bo‘lgani, aql bu masalada hayron bo‘lgani ifodalanadi:

Borg‘oni-yu kelgani bir on o‘lub,
Aql bu mansubada xayron o‘lub. [1. 30b]

Nizomiy ham, Navoiy ham me'roj bayonida turli badiiy tasvir vositalaridan, she'riy va lafziy san'atlardan mahorat bilan foydalangan. Quyida ikki ijodkor qo'llagan badiiy san'atlardan ayrim namunalar keltirib o'tamiz:

“Hayrat ul-abror”da:

Tashbeh:

O't **kibi** yer mijmari ostida mehr,
Yopib etak mijmara uzra sipehr.

Bahrdek ul jo'sh ila aylab xurush

Talmeh:

Xizr ko'k uzra qatarotin sochib.

Dalvg'a **Yusuf** kibi solmay nazar,
Hutda **Yunus** kibi qilmay maqar

Tanosub:

Bu kecha ul **sarvi gulistoni** uns,
Ravshan etib **sham'i shabistoni** uns

Tazod:

Yerdin o'lub **ko'kkacha** bir gom anga.
Qolmadi yo'lida chun aslo **makon**,
Qildi makon bodiyai **lomakon**.

Debkim, ayo mahzani **asrori** shavq,
Haqdin erur vaslingga **izhori** shavq.

Tardi aks:

Chunki nabiy **mujdai jonon topib**,
Mujdai jonon chu topib jon topib.

“Maxzan ul-asror”da:

Tazod:

Kunduz etib har qadamiga vido,
Tun anga aylar edi raqsi samo'

Ul kecha ag'yor edi uyquga g'arq,
Ul esa uyg'oq edi monandi barq.

Tanosub:

Kim tan anga boshtin-oyoq jon edi,
Joni dog‘i vosili jonon edi.

Gul edi, nargis edi ul bog‘aro,
Ko‘zi ajab surmali erdi, qaro

Jonlantirish san‘ati:

Kecha yorishdi bu nahor husnidin,
Sarv gul ochdi bu bahor husnidin.

Takrir:

G‘ayrati g‘ayratga ulashdi shu on,
Hayrati hayratga tutashdi chunon.

Ruju‘:

Ko‘rgani javhar edi, yo‘qdi araz,
Balki araz ermasu javhar emas

Umuman olganda, me‘roj tuni tasviri har ikki ijodkor asarida to‘laligicha o‘z aksini topgan. Bir voqeani tasvirlashda ijodkorlar rang-barang tasvir vositalaridan foydalangan. Bu osmon jismlari, sayyoralar, yulduzlar, oy va quyosh, burjlarning holati, Jabroil (a.s), Buroq obrazlarida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, payg‘ambar(s.a.v) ning ummatlari uchun olgan rahmat va hidoyatlarida ham mazmuniy birlik va ifodaning xilma-xilligi aks etgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy me‘roj mavzusini turli badiiy yo‘nalishda yoritgan bo‘lsalar-da, maqsad bir ya‘ni ilohiy haqiqatni ulug‘lashdir. Ijodkorlarning bu qarashlari Sharq adabiyotida me‘rojnomaning nafaqat badiiy rang-baranglik va uslubiy boyligi, balki ma‘naviy va falsafiy ahamiyatini ham ochib beradi. Bu ikki yondashuv orqali o‘quvchi me‘roj hodisasi orqali insonning ruhiy-ma‘naviy kamolotini anglaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”. Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti,1989
2. Alisher Navoiy. «Hayrat ul-abror». – Toshkent: “Fan”, 1991
3. Alouddin Mansur. “Qur‘oni Karim ma‘nolari va uning tarjimai”. – T.: Cho‘lpon, 1992
4. Komilov N, “Tasavvuf”. Toshkent:”Movarounnahr”, 2009

-
5. Muhiddinov M, “Komil inson-adabiyot ideali”, Toshkent:”Fan”, 1995
 6. Nizomiy Ganjaviy, “Maxzan ul-asror”. Toshkent, 2016
 7. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. “Tamaddun”, 2019.
 8. Saidakbarova M, “Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari”, Farg’ona: “Classic”, 2024
 9. Turdiyev Jahongir Zafariddin o‘g‘li Turkiy tildagi me’rojnomalarning qiyosiy-matniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. Toshkent, 2022
 10. Vohidov R. “Alisher Navoiy va Ilohiyat”, Buxoro, 1994.
 11. Tursunmurodov Sh, “Maxzan ul-asror” va “Hayrat ul-abror” dostonlarining qiyosiy tahlili, Avgust 2024, Tamaddun nuri jurnali 8(59):308-311
 12. G’anixonov M, Erkinov S, “Nizomiy Ganjaviy”. Toshkent:”Fan”, 1992

